

**QUYONLAR TERI QOPLAMASINING GISTOMORFOLOGIK
TUZILISHI**

assistantlar O‘A.Rahmonov, Z.R.Mirzoyev,

talaba M.N.Ilyosova

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti*

Annatatsiya. ushbu maqolada quyonlar teri qoplamasini gistomorfologik tuzilishi, xususiyatlari bo‘yicha adabiyot ma’lumotlari tahlil qilinib, shu asosida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit suzlar: teri, sezish, moddalar almashinushi, termoregulyatsiya, sekret, epidermis, derma, gipoderma, bazal qavat, tikansimon qavat, donador qavat, yaltiroq va muguz (shox) qavat.

Mavzuning dolzarbligi. Bugun yurtimizda xususy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Joriy yilning 26-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-143-sonli qarori qabul qilindi. Mana shu imkonyatlardan unumli foydalanmoqchi bo‘lsangiz sizga quyonchilik biloan shug‘ullanishni tafsiya qilamiz. Quyonlarni uy sharoitida va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida boqib ko‘paytirish nafaqat qiziqarli va iqtisodiy jihatdan juda foydali bo‘lib undan parhezbob go‘sht, tivot va qimmatli mo‘yna olinadi.

Teri qoplami – (*Integumentum commune*) quyonlar tanasini tashqi tomondan o‘rab turadigan, murakkab tuzilgan parda bo‘lib, hayot uchun juda muhim organ bo‘lib, organizmni tashqi va ichki muhit bilan bog‘lab uni himoya qiladi.

Teri qoplami organizmni har qanday patogen mikroorganizm, bakteriya va boshqa yot ta’surotlardan himoya qiluvchi vositadir. Teridagi qabul qiluvchi

nerv hujayralarining uchlari orqali ichki organlarni tashqi muhit bilan bog‘lab, ularning bir butunligini ta’minlaydi. Teri qoplami elastik bo‘lib, tanaga teri osti klechatkasi bilan birlashadi.

Teri (cutis) - odam va hayvonlar tanasining tashqi qoplamasi. Organizmni tashqi ta’sirdan himoya qiladi, sezish, moddalar almashinushi, organizmdan keraksiz moddalarni chiqarish, termoregulyatsiya va boshqalarda qatnashadi. Quyonlar terisi qalinligi gavdaning turli joyida turlicha bo‘lib, 0,5 mm dan 1 mm gacha. Kaft va tovonda 2-2,5 mm ga yetadi. Teri quyonning butun tanasini qoplab, og‘iz, burun, siydk chiqarish kanali, anus sohasida shilliq qavatga aylanadi. Teri o‘ziga xos rang va tusga ega, u donador va muguz qavatlarning qalinligiga, tomirlarning yuza joylashishiga, shu bilan birga melanin pigmentining ko‘pozligiga qarab belgilanadi. Terining rangi tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. Teri yuzasi, odatda, notekis, unda son-sanoqsiz egatcha, burma va chuqurchalar bo‘lib, ular bir-biri bilan kesishgan joylarda uchburchaklar, rombiklar shaklini hosil qiladi.

Quyonlarning terisi uch qavatdan - epidermis (epitelial qavat), o‘rta qavat - xususiy teri qavati (derma) va teri osti yog‘ qavati (gipoderma)dan tarkib topgan. Epidermisning o‘zi besh qavatdan: basal qavat, tikansimon qavat, donador qavat, pigment qavat va muguz (shox) qavatdan iborat.


Epidermis qatlami o‘zidan shox modda hosil qiluvchi *keratin* ishlab chiqaradi. Epidermis qatlami doimo nobud bo‘lib, yana yngilanib turadi. Quyonlarning ba’zi joylarida saqlanib qolgan bu o‘lik epidermis terida qotib qolib, katta – katta parcha bo‘lib tushadi. Natijada organizmda moddalar almashinushi buziladi va har xil teri kasalliklari paydo bo‘ladi. Shuning uchun hayvonlarni doim toza saqlash kerak.

Terining epidermis va derma qavatlari nozik parda bilan bir-biri bilan tutashib ularning orasida moddalar almashinushi jadal kechib turadi va asosiy derma qavat qon tomirlar, nerv, ter, yog‘ bezlariga, jun ildizi va muskul tolalariga boy qavatdir. Terining qalinligi derma qavatining taraqqiyotiga bog‘liq.

Asosiy, ya’ni chin teri - derma, (s. cutis, cornea.) Bunday atalishiga sabab shuki, unda har xil nerv va qon tomirlari, limfa tomirlari juda ko‘p bo‘ladi. Asosiy qatlamning tayanchi biriktiruvchi to‘qimadir. Biriktiruvchi to‘qimaning tolalari har tomonlama joylashib, bir – biriga zich o‘ralgan bo‘ladi. Asosiy terida bir qancha ter bezlari, jun xaltachasi, jun ildizi, yog‘ bezlari bo‘ladi. Bu qatlamning qalinligi quyonlarning sog‘lig‘iga, parvarish qilinishiga, yashash sharoitiga va jinsiga bog‘liq. Urg‘ochi hayvonlarning terisi erkaklarnikiga qaraganda ancha yupqa bo‘ladi.

Teri osti qatlami – (subcutis) asosiy terining ostida joylashgan bo‘lib, siyrak biriktiruvchi to‘qimadan tuzilgan. Bo‘yin terisi serharakat, suyakka yaqin joydagi teri kam harakat, sunki bu yerda teri osti qatlami juda yupqa bo‘ladi. sut emizuvchi hayvonlar terisining ostida yog‘ bezlari bo‘lib, yog‘ to‘plash uchun xizmat qilib, cho‘chqa va suvda yashovchi sut emizuvchilarda yaxshi rivojlangan. To‘plangan yog‘ hayvonlar uchun zapas oziq hisoblanadi. Hayvonlar yoz va kuz vaqtida terisi ostida juda ko‘p yog‘ to‘plab, qish oylarida sarf qiladi. Yog‘ to‘planishi ham hayvonlar jinsiga bog‘liq.

Teri qoplami ko‘pgina fiziologik funksiyalarni bajarishi bilan bir qatorda organizmning muhim sistemalaridan: ko‘payish, siydik ayirish organlariga yordam beruvchi ter bezlari, juda ko‘p qon tomir kapilyarlari, nafas olish organlari va boshqalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Suvda va quruqda yashovchi hayvonlarning uchdan ikki qismi teri orqali nafas oladi.



Terining ahamiyati va vazifasi

1. Himoyalovchi – tananing asosiy strukturalarini himoyalaydi, maxsus joylarda (masalan, barmoqning Yumshoq tovoni) u qalinlashib, fizik shikastlardan qo'shimcha himoyalaydi. Undan tashqari, teri organizmga mikroblar kirib borishidan himoyalaydi, uning yog‘ bezlari esa antiseptik ta'sir qiladi. Teri suvni o'tkazmaydi.
2. Sensorli – teri yuzasidagi har xil turdag'i nerv uchlari harorat, bosimni va og'riqni aniqlaydi hamda taktil sezuvchanlikka egadir. Bu xislatlar tashqi muhitni kuzatish uchun xizmat qiladi.
3. Sekretsiyalı – terining bezlari yog‘ va terni ishlab chiqaradi. It va mushuklarda ter bezlari barmoq Yumshoqlarida va burun uchida bo'ladi; terining maxsus bezlari feromonlarni ajratadi.
4. Ishlab chiqaradigan – ultrabinafsha nurlar teri yog‘idagi 7-dihydrocholesterolni D vitaminga aylantiradi. U esa jigar va buyrakda to‘planib faollashadi, kalsiy organizmga singishini va metabolizmini kuchaytiradi.
5. Zaxiralovchi – yog‘ teri ostida yog‘ to‘qimasi shaklida yotadi. U energiya zaxirasi va issiq o'tkazmaydigan qavat funksiyalarini bajaradi.

6. Termoregulyatsiya – issiq ajralishini kamaytirish uchun teri vazokonstriksiya hisobidan qonni tashqi yuzaga qo‘ymaydi, xurpaygan junlar esa havo almashinishini sekinlashtiradi, bunga yog‘ qatlami ham yordam beradi. Tanani sovitish uchun ter ajraladi.

Terining tuzilishi

Har xil hayvonlarning terisi turlicha tuzilgan. Ba’zi hayvonlar (qoramol) terisi juda qalin, qo‘y va echkilar terisi yupqa bo‘ladi. Bitta hayvonning terisi ham har xil joyda turlicha qalinlikda, masalan, bosh, yelka, bo‘yin terisiga qaraganda qo‘ltiq, chov terisi ancha yupqa, umuman hayvon tanasining qaysi qismi tashqi muhit bilan yaqindan bog‘langan bo‘lsa, o‘sha joyning terisi qalin bo‘ladi.

Teri qoplami tana to‘qimalarini qurib qolishdan, har qanday ximiyaviy ta’sirdan, sovuq va issiqliqdan saqlashda muhim vazifa bajaradi. Teri yog‘larni va zapas qonni saqlashda katta rol o‘ynaydi. Teri turli sharoitda yashaydigan hayvonlarda har xil tuzilgan. Masalan, baliqlar terisi qushlarnikidan, ularniki esa sut emizuvchilarnikidan butunlay farq qiladi, chunki baliqlar terisi muguzlashgan tangachalar bilan qoplangan, suvda suzganda ular yirtilib ketmaydi, qushlarning terisi har xil par bilan qoplangan bo‘lib, uchish uchun moslashgan bo‘ladi. Sut emizuvchilar terisi jun bilan qoplangan.

Teri organizm bilan tashqi muhit o‘rtasida to‘siq vazifasini o‘taydi. Organizmni tashqi muhitning noxush omillaridan (kimyoviy, fizik va biologik) himoya qiladi. Muguz qavatning zichligi, ustidagi yog‘ biriktiruvchi to‘qimalarning cho‘ziluvchanligi, Teri osti yog‘ qavatining qalin bo‘lishi organizmni turli mekanik ta’sirotlardan, shuningdek, uncha kuchli bo‘lmagan ishqor va kislotalar ta’siridan saqlaydi. Bu qavat elektr tokini yomon o‘tkazadi. Teridagi kislotali muhit mikroblar kirishiga to‘sinqinlik qiladi; mabodo shikastlangan teri orqali mikrob kirib qolgudek bo‘lsa, unga qarshi ta’sir ko‘rsatadigan moddalar ta’siriga uchraydi va shu joyga leykotsitlar yetib kelib, qarshilik ko‘rsatadi, shu soha terisida yallig‘lanish alomatlari paydo bo‘ladi. Teri

suv, tuz, oqsil, yog‘, vitaminlar va gaz almashinuvida ishtirok etadi. Gavda trasini saqlashda teri juda katta ahamiyatga ega.

Hayvon terisi charmmo‘yna va yelim ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlataladi. Yangi shilingan teri tarkibida oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, mineral moddalar, fermentlar mavjud, teri massasining 70% i suvdan iborat. Teri xom ashyosi sifatiga hayvon turi, vazni, uning yashash, saqlanish sharoiti, iqlim, ozuqa turlari ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov Sh.I., Shodiyev N.Sh., Isayev M.I., Daminov A.S. “Sitologiya, gistologiya va embriologiya”. Darslik. Toshkent, 2006 yil.
2. Shodiyev N.Sh., Dilmurodov N.B. “Sitologiya, gistologiya va embriologiya”. Darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2015 yil.
3. To‘xtayev Q.R., Azizova F.X., Abduraxmonov M., va b. “Sitologiya, gistologiya va embriologiya”. Darslik. “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti Toshkent, 2018 yil.
4. Histology, Cytology, Embryology: Textbook / I. V. Bobrysheva, S. A. Kashchenko. - Lugansk: “Knowledge”, 2011.
5. Dilmurodov N.B., Eshmatov G.X. «Hayvonlar anatomiyasi» fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018 yil.
6. Dilmurodov N.B. Karimov M.G. Normurodova Z.F. «Hayvonlar morfoloyiyasi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari». Toshkent, 2018.
7. Babashev, A. Saparov, A. R. Rahmanov, O.A. Narzullayeva, F.S. 2022. Lite5ratu5re data of pat6homorphologyof joint diseasses in horses. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 271-274.
8. Normuradova Z.F. Karimov. M.G., Ibragimov B.Kh. Toxic Effect of Gossypol-Containing Food on Chickens. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April. 7252 – 7257.
9. Раҳмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Қахарова, М. К. (2022). Отларда йирингли конъюнктивитни даволаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 405-408.

- 10.O`A Rahmonov, NE Khudoynazarova, Karimov MG, Ibragimov BH, Morphofunctional Properties of the Adrenal Glands of Rabbits. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April, 7245-7251.
- 11.Рахмонов, Ў. А., Сапаров, А. Р., & Азимова, Д. М. (2022). Катарал кератоконъюнктивитларни даволашда ноанъанавий усулларни қўллаш. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(6), 401-404.
- 12.Normuradova, Z. F., & Arzikulova, S. M. (2022, May). QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. In E Conference Zone (pp. 44-47).
- 13.Mirzoev, Z. R., Rakhmonov, R. A., & Khudoynazarova, N. E. (2021). Morphometric properties of the shoulder bone in the postnatal ontogenesis of rabbits in the meat direction. nveo-natural volatiles & essential oils Journal NVEO, 15714-15717.
- 14.Gulyamovich, M., & Hakimovich, I. B. (2021). Morphofunctional properties of the adrenal glands of rabbits. Webology (ISSN: 1735-188X), 18(1), 19-24.
- 15.Yunusov, X. B., & Turdiyev, A. K. (2022). QUYONCHILIKDA VETERINARIYA SANITARIYA GIGIYENASI TADBIRLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI, 1312-1322.
- 16.OZ Ergasheva, S Sh Beknazarov 2023 RESPUBLIKAMIZDA PARVARISHLANAYOTGAN QUYON ZOTLARI VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 418-424.
- 17.Turdiyev, A. K., Raxmonov, D. A., Beknazarov, S. S., & Raxmonov, U. A. (2023). NUTRIYACHILIKVAMO ‘YNACHILIKNIRIVOJLANTIRISHDA VETERINARIYASANITARIYAGIGI YENASITADBIRLARI. Scientific Impulse, 1(9), 542-548.
- 18.Каримов, М. Г., Избасаров, У. К., & Каримов, Ж. М. (2021). Применение отечественных фитопрепаратов при травматических повреждениях у лошадей.

19. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. (2019). Морфофункциональная характеристика яичников у коз.